

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

# **OYBEK**

**HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH BO‘YICHA**

Dastur va uslubiy qo‘llanma

**Toshkent – 2020**

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma yozuvchi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hayoti va ijodini oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish uchun ishlab chiqildi.

Dastur va qo‘llanmada Oybek hayoti va ijodining barcha jabhalari qamrab olindi. Uning qismlarida kelayotgan Oybek hayoti va faoliyatiga doir ma‘lumotlar aniq manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, Oybek asarlarining g‘oyaviy – badiiy jihatlarini talaba-yoshlarga sodda va tushunarli qilib yetkazish, Oybek ijodining eng muhim qirralarini yoritish maqsad qilindi.

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma Oybek hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

**Shuhrat Sirojiddinov,**  
filologiya fanlari doktori, professor

Tuzuvchi:

**Zovqidin Suvonov,**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)

Taqrizchi:

**Bahodir Karimov,**  
filologiya fanlari doktori, professor

*Mazkur uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.*

## **I. KIRISH**

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hayoti va ijodini o'qitish bo'yicha dastur oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan. Unda mazkur kursning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo'lib, Oybek hayoti va ijodi, siyosiy-ijtimoiy faoliyati, yozuvchi sifatidagi mahorati yoritilgan. Ularni singdirish dasturda belgilangan mavzular bo'yicha o'tiladigan turkum mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

## **II. FAKULTATIV O'QUV KURSINING MAQSADI**

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug' ajdodlarimiz bosib o'tgan hayot yo'lini o'rnatish sifatida ko'rsatish, Oybek hayoti va ijodini o'rganishning zaruriyatini tushuntirish, Oybekning bugungi milliy ma'naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o'rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

## **III. FAKULTATIV O'QUV KURSINING VAZIFALARI**

- XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi tutgan o'rni va mavqeyini ochib berish;
- Oybek hayoti va ijodiga doir muhim ma'lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish;
- Oybekning olim, yozuvchi, shoir va jamoat arbobi sifatidagi xizmatlariga urg'u qaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash yo'lida Oybek faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ'ib etish;
- Oybek hayot yo'li va faoliyati asosi bo'lgan jasorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma'rifatparvarlik, erkparvarlik, to'g'riso'zlik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma'navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;
- adib yaratgan ijod mahsullari: she'rlari, nasriy asarlari, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma'no-mazmunini, g'oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.

## **IV. FAKULTATIV O'QUV KURSINI O'ZLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR:**

- XX asr o'zbek adabiyotida Oybek faoliyatining bugungi milliy mafkuramiz bilan hamohang jihatlarini anglab yetishlari;
- Oybek hayoti va ijodi yuzasidan ma'lumotga ega bo'lishlari, o'zlashtirgan bilimlarni to'g'ri mushohada eta olishlari;

– adib yaratgan ijod mahsullari: she’rlari, nasriy asarlari, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma’no-mazmunini, ularda aks ettirilgan g’oyalarni talqin qila olishlari;

– Oybekning adib sifatidagi qiyofasini ochib beruvchi nasriy asarlari, she’rlari, tarjima asarlarini o’rganish;

## V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot”. “Siyosatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

## VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

<b>№</b>	<b>Mashg‘ulot turi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1	Ma’ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	<b>JAMI:</b>	<b>20</b>

Mashg‘ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	<b>Mavzular</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Kutiladigan natija</b>	<b>soat</b>
<b>MA’RUZALAR</b>				<b>8</b>
1	Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hayoti va ijodi	Oybek hayoti va ijodi, u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida ma’lumot beriladi. Oybek ijodini o‘rganishning ahamiyati tushuntiriladi. Oybek dunyoqarashi kengayishida muhim ta’sir ko‘rsatgan omillar izohlanadi.	Oybek hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, XX asr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Ijodkor dunyoqarashi kengayishida muhim ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida xulosa chiqarish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.	2
2	Oybekning nasriy asarlari badiiyati	Oybek ijodini tanishtiriladi. Oybekning	Oybek ijodini o‘rganadilar. Oybekning nasriy	2

		nasriy sarlarini g'oyaviy – badiiy tahlil qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Oybek ijodining o'ziga xos jihatlari tushuntiriladi.	sarlarini g'oyaviy – badiiy tahlil qiladilar. Oybek ijodining o'ziga xos jihatlari o'rganib, asarlari bilan tanishadilar.	
3	Oybekning adabiy-badiiy qarshlari	Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilishi tushuntiriladi. Oybekning adabiy tanqidchi sifatidagi faoliyati bilan tanishtiriladi. Oybekning Nazariy qarashlarning amaliyotga ta'sirini tahlil qilish ko'nikmasi hosil qilinadi.	Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilishi tarixi bilan tanishadilar. Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarining mohiyatini tushunadilar. Oybekning adabiy tanqidchi sifatidagi faoliyati va nazariy qarashlarning amaliyotga ta'sirini tahlil qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.	2
4	Oybekning she'riy asarlari tahlili	Oybekning she'riyatga kirib kelishi jarayoni tushuntiriladi. Oybekning salmoqli she'riyati bilan tanishtiriladi. She'rlarining tahlil qilish ko'nikmasi hosil qilinadi.	Oybekning she'riyatga kirib kelishi jarayoni bilan tanishadilar. Oybekning salmoqli she'riyati va she'rlarini tahlil qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.	2
<b>SUHBAT-MULOQOTLAR</b>				<b>4</b>
1	Oybek dostonlarida ijtimoiy muammolarning aks etishi	Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga ulkan va bebaho hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritganligi, adabiyotga 1926-yili chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib kelib toki "Dilbar – davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va	Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga ulkan va bebaho hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi sifatidagi faoliyati va "Dilbar – davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq", "Temirchi Jo'ra" (1933) kabi o'z davrining yetuk ijod namunalari bilan tanishadilar. Tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin	2

		Sogʻindiq”, “Temirchi Joʻra” (1933) dostonlari oʻz davrining sheʻriy yilnomalari ekanligi, tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratish jarayonigacha boʻlgan ijod davri haqida bayon qilinadi.	dostonlar yaratish jarayonigacha boʻlgan ijod davri haqida bilimga ega boʻladilar.	
3	Oybekning navoiyshunoslikka qoʻshgan hissasi	Oybek tadqiqotlari Navoiy hayoti va ijodiyotining oʻrganishda keng qamrovli manba ekanligi, Navoiyning tarjimai holi, gʻazaliyoti, dostonlari va ilmiy faoliyati ijodining halqchilligi va gumanizmi, mahorati va tili, umuman davra va adabiy muhiti singari masallar haqida yaratgan tadqiqotlari haqida bayon qilinadi.	Oybek tadqiqotlari Navoiy hayoti va ijodiyotining oʻrganishda keng qamrovli manba ekanligi, Navoiyning tarjimai holi, gʻazaliyoti, dostonlari va ilmiy faoliyati ijodining halqchiligi va gumanizmi, mahorati va tili, umuman davra va adabiy muhiti singari masallar haqida yaratgan tadqiqotlari haqida bilimga ega boʻladilar.	2
<b>MUNOZARALAR</b>				<b>4</b>
1	Oybek va XX asr adabiy muhiti	Mashgʻulot avvalida Oybekning matbuot va adabiyot olamiga kirib kelshida turtki boʻlgan omillar, uning nasriy va sheʻriy asarlari, doston va tanqidiy maqolalarining davr ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan bogʻliqligi, va asarlaridagi davr muammosi toʻgʻrisida maʼlumot beriladi.	Oybekning matbuot va adabiyot olamiga kirib kelshida turtki boʻlgan omillar, uning nasriy va sheʻriy asarlari, doston va tanqidiy maqolalarining davr ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan bogʻliqligi, va asarlaridagi davr muammosi toʻgʻrisida bilimga ega boʻladilar.	2
2	“Qutlugʻ qon”ning qiyosiy	Oʻzbek nasrining yetuk nomoyondasi	Yoshlar asarni oʻrganish davomida inson faqatgina	2

	tahlili	asarlarining mohiyati, g‘oyaviy maqsadlari bayon qilib beriladi. “Qutlug‘ qon”ning o‘z davrida juda zarur vaqtda yaratilganligi, yoshlar ta‘lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini asar negizida tushuntirishga urg‘u beriladi.	moddiy boylik bilan yashay olmasligi, unda ma‘naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo‘lishi lozimligini anglab yetadilar, asardagi har bir obraz tabiati orqali o‘sha davr ijtimoiy muhiti, insonlar dunyoqarashi, axloqi to‘g‘risida xulosalar chiqarishadi. asardagi obrazlar orqali jamiyatdagi ilmlilar bilan ilmsizlar, ma‘rifatlilar bilan johillar, ogohlar bilan loqaydlar o‘rtasidagi kurash tasvirlanganligini anglab yetadilar.	
<b>TAQDIMOT</b>				<b>4</b>
1	Cho‘lpon ijodi Oybek talqinida	Cho‘lpon va zamon-doshlari ijodi Oybek talqinida. Oybekning 20-yillardagi Cho‘lpon she‘riyatiga bag‘ishlangan maqolasini jur‘at va jasorat bilan yozilgan ishlardan biri ekanligi, Cho‘lponni to‘g‘ri tushunishda Oybekning shoir yuragi muhim rol o‘ynashi, Cho‘lpon she‘riyatini chuqur tahlil etib, xalq uchun zarurligini, ahamiyatini to‘g‘ri ta‘kidlagani haqida fikrlar beriladi.	Oybek tadqiqotlari natijasida Cho‘lponning go‘zal ijodi haqida ma‘lumot oladi. Cho‘lpon she‘rlarini tahlil qiladi.	2
2	Oybek – adib	Oybekning adib sifatidagi faoliyati yoritib beriladi. Oybekning adabiyot va san‘atga katta e‘tibor qaratganligi to‘g‘risida fikr-	Oybekning adib sifatidagi faoliyati yoritib beriladi. Oybekning adabiyot va san‘atga katta e‘tibor qaratganligi to‘g‘risida fikr-muloha-	2

	mulohazalar bildiriladi. Oyekning jahon adabiyoti durdonasi sanalgan asarlarni tarjima qilganligi aytiladi.	zalar va Oyekning jahon adabiyoti durdonasi sanalgan asarlarni tarjima qilganligi bilan tanishadi.	
--	---	--	--

## VII. “OYBEK HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH” KURSINI O‘QITISHNING O‘QUV-USLUBIY TA‘MINOTI

### “OYBEK HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH” KURSINING SILLABUSI

<b>Fanning qisqacha tavsifi</b>			
OTMning nomi va joylashgan manzili:			
Kafedra:	O‘zbek tili va adabiyoti		
Ta‘lim sohasi va yo‘nalishi:			
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma‘lumot:		e-mail:	
Dars vaqti va joyi:		Kursning davomiyligi:	
Individual grafik asosida ishlash vaqti:			
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari		Mustaqil ta‘lim: 30
	Ma‘ruza: 8	Seminar 12	
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot”. “Siyosatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.		
<b>Fanning mazmuni</b>			
Kursning maqsad va vazifasi:	Fanning asosiy maqsadi – Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Oybek hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, oybekning bugungi milliy ma‘naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini		



	<p>asoslashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- XX asrda yurtimizda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning Oybek ijodida tutgan o‘rnini ochib berish;</li> <li>- Oybek hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish;</li> <li>- Oybekning publitsistika, matbaa ishlaridagi faoliyatini atroflicha ochib berish;</li> <li>- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Oybek faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;</li> <li>- Oybek hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan jasorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma’rifatparvarlik, erkparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma’navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;</li> <li>- Oybekning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “Navoiy ” romani, tarjimalari, tanqidiy maqolalari mohiyatini, ma’no-mazmunini, g‘oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.</li> </ul>				
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o‘zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- XX asr adabiy jarayonining mohiyati;</li> <li>- Oybekning hayoti va faoliyati;</li> <li>- yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishiga xos xususiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>;</li> <li>- Oybekning hayot yo‘li;</li> <li>- Oybek ijodi;</li> <li>- badiiy adabiyotning shakllanishida matbuotning o‘rnini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>- adabiyotning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>.</li> </ul>				
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	<p>Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.</p>				
<p>Sillabus taqvim: O‘tiladigan mavzular ro‘yhati:</p>					
№	Mavzular	Ma’ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hayoti va ijodi	2 soat			
2	Oybekning nasriy asarlari badiiyati	2 soat			

3	Oybekning adabiy-badiiy qarashlari	2 soat			
4	Oybekning she'riy asarlari tahlili	2 soat			
5	Oybek dostonlarida ijtimoiy muammolarning aks etishi		2 soat		
6	Oybekning navoiyshunoslikka qo'shgan hissasi		2 soat		
7	Oybek va XX asr adabiy muhiti			2 soat	
8	"Qutlug' qon"ning qiyosiy tahlili			2 soat	
9	Cho'lpon ijodi Oybek talqinida				2 soat
10	Oybek – adib				2 soat
<b>Jami</b>		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat
Asosiy adabiyotlar:		<p>1. Oybek. Asarlar. O'n tomlik. – T.: G'afur G'ulom, 1968-1975.</p> <p>2. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'qqiz tomlik. – T.: Fan, 1975-1982.</p> <p>3. Saidnosirova Z. Oybegim mening. – T.: Sharq NMAK, 1994.</p>			
Qo'shimcha adabiyotlar:		<p>1. Do'stqorayev B. Bir munozara tarixidan // Sharq yulduzi, 1989. № 6. 189-bet.</p> <p>2. Yoqubov H. G'oyaviylik va mahorat. – T.: Fan, 1963.</p> <p>3. Yoqubov H. Adibning mahorati. – T.: Fan, 1966.</p> <p>4. Karimov N. Oybek. – T.: Yosh gvardiya, 1985.</p> <p>5. Karimov N. Oybekning "Navoiy" romani. Jahon adabiyoti, 2013. №2.</p> <p>6. Karimov N. Oybekning tarjimonlik mahorati. Jahon adabiyoti, 2013. №1</p> <p>7. Nazarov B. Bu sehrlı dunyo... – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1979.</p> <p>8. Fayziev B. "Navoiy" romanida tarixiy</p>			

	<p>voqelik va badiiy to‘qima. – T.: G‘afur G‘ulom NMIU, 1971.</p> <p>9. Qo‘shjonov M. Oybek mahorati. – T.: Fan, 1965.</p> <p>10. Oybek ijodiy metodi va badiiy mahorati. Maqolalar to‘plami. – T.: Fan, 1985.</p> <p>11. Sharafiddinov O. So‘z san‘atiga fidoyi sadoqat. “Iste‘dod jilolari” kitobida. T.: G‘afur G‘ulom NMIU, 1976.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta‘minoti	<p>1. <a href="http://www.ziyounet.uz">www.ziyounet.uz</a></p> <p>2. <a href="http://www.e-tarix.uz">www.e-tarix.uz</a></p> <p>3. <a href="http://www.ziyouz.com">www.ziyouz.com</a></p>

## “OYBEK HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH” KURSINI O‘QITISHNING MA‘RUZA TEXNOLOGIYASI

<b>Vaqt: 2 soat</b>	<b>Talabalar soni    nafar</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	<b>Muammoli ma‘ruza</b>
<b>Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi</b>	
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> O‘zbek tili leksikaning mustaqillik sharoitidagi taraqqiyoti va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda bu jarayonda yuzaga kelgan leksik o‘zgarishlarni o‘qitishning eng samarali usullarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan bog‘liq jarayonlarni tanishtirish; - o‘zbek tili leksikasidagi faollashgan jarayonlarning turlari bilan tanishtirish; - terminlarning taraqqiyoti va rivojini ko‘rsatib berish;	<b>O‘quv faoliyatining natijalari.</b> <i>Talaba:</i> - o‘zbek tilining davlat tili maqomidagi masalasiga tavsif beradi; - leksik hodisalarning turlarini aytib beradi va izohlaydi; - terminlarni tasnifi orqali guruhlarga ajratadi.
<b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma‘ruza, blits-so‘rov, bayon qilish, klaster, “BBB” texnikasi
<b>O‘qitish vositalari</b>	Ma‘ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
<b>O‘qitish shakli</b>	Jamoa va guruh bo‘lib ishlash
<b>O‘qitish shart-sharoiti</b>	Elektron doska bilan jihozlangan xona

## MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
<p><b>1-bosqich.</b> <b>O'quv mashg'uloti-ga kirish.</b> <b>10 daqiqa</b></p>	<p>O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.</p>	<p>Talabalar mashg'ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta'limiy faoliyatga tayyor bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.</p>
<p><b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy bosqich.</b> <b>55 daqiqa</b></p>	<p>Ma'ruza mashg'uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Tipologiya tushunchasi bilan tanishtiradi. Umumiy tipologik metodni tavsiflaydi. Tillarni geneologik guruhlash qonunlarini tushuntiradi. Morfologik tipologiya usullarini izohlaydi. (ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi). Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.</p>	<p>Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning yakuniy bosqichida to'ldiriladi. Talabalar ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatlari to'g'ri rejalashtiriladi. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi. Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar. Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan</p>

		muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.
<b>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</b>	Talabalar tomonidan ma'ruzada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.	Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.
<b>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</b>	Mavzuni to'liq o'zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.	Mavzu bo'yicha maqola tayyorlaydilar.

## **VII. KURS YUZASIDAN MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL TA'LIM YUZASIDAN KO'RSATMALAR**

- O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.
- Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:
- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;
  - innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;
  - o'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;
  - o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;
  - mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ta'lim tizimida interfaol ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllari mavjud:



Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

**Interfaol** termini ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter” – o'zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko'rmoq* kabi ma'nolarni anglatadi.

**Interfaol ta'lim** – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi.

**Interfaollik** ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.


Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (magistrant)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

### Interfaol ta'limning asosiy belgilari



Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:



Keyingi yillarda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosiy o'rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim* deb nomlanadi. Ushbu ta'lim pedagog va magistrant o'rtasidagi o'zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e'tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi: 1. Modulli ta'lim texnologiyasi. 2. Muammoli ta'lim texnologiyasi. 3. Interfaol ta'lim texnologiyasi. 4. Individual ta'lim texnologiyasi. 5. Masofaviy ta'lim texnologiyasi. 6. Kompyuter ta'lim texnologiyasi. 7. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi. 8. Loyiha ta'lim texnologiyasi. 9. Dasturiy ta'lim texnologiyasi. 10. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi. 11. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. 12. O'yin texnologiyalari. 13. Gender ta'lim texnologiyasi. 14. Quvvatni tejoychi ta'lim texnologiyasi.

Mazkur ta'lim texnologiyalaridan *modulli ta'lim, muammoli ta'lim va interfaol ta'lim texnologiyalarini* faol qo'llash tavsiya qilinadi.

Ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys** stadi hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo'llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirishi e'tirof etilmoqda.

**Keys-stadi** – (inglizcha *case* – to'plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan haqiqiy yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish metodi.

### **Keys-stadi usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi Ishlar bosqichi va mazmuni**

<b>Ishlar bosqichi va mazmuni</b>	<b>F a o l i y a t</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg'ulotlarda tarqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlantirishga ta'sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.



2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo'yicha tezkor-so'rov o'tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi, baholash ko'rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e'tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'llarini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini beradi.	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo'ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko'rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish.	Keysni yechish va taqdimot varag'ini tayyorlash bo'yicha harakatlar qiladilar.
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o'zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar.

### KONSEPTUAL JADVAL

O'rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o'rgatish, muammoni tahlil qilish, ma'lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo'nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so'z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontaal bo'yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo'yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jihat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o'zlashtirilayotgan o'quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minotini

yanada boyitadi. Muayyan matn bo'yicha konseptual jadvallarni mikroguruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg'ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o'tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig'ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Fakultativ o'quv kursini o'qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin. Shuningdek, o'qitishning **an'anaviy va ilg'or usullarini, shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish, muammoli o'qitish texnik vositalarini qo'llash, ekskursiya** va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlari ma'ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo'llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o'quv kursini zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

– “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Rreynstorming”, “Klaster” (axborotni yig'ish), “Sinkveyn” (axborotni yig'ish, “Akvarium”, “Charxpalak”, “Gyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

– Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish.

– Talabalarning kichik guruhlariga bo'lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish.

– ma'ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).

– Test savollari tuzish.

– “Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o'zlashtirishda ko maklashish.

– talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko'rgazmali ma'ruza qilishga o'rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

## **MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH**

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o'quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– tarqatma materiallar bo'yicha fakultativ o'quv kurs mavzularni o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi

lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo‘yicha 3-5 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

– O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg‘ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

– O‘z-o‘zini baholash orqali bilimni uzluksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimini o‘zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.

– Fakultativ o‘quv mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o‘rganish;

– Talabalarining mustaqil ta‘lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o‘quv kursining muayyan mavzularni chuqur o‘rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

– Internet materiallari.

– Audio manbalar.

– Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.

– Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg‘ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

## **TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH**

Taqdimotlar fakultativ o‘quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya‘ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o‘taydi. Taqdimotlar o‘quv taqvimiy rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

– fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish.

– internet materiallarini topish va unumli foydalanish;

– audivizual manbalardan foydalanish;

– axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

## TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI

1. Oybek – XX asr rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ adib.
2. Oybek hayoti va faoliyatining o‘rganilishi.
3. Oybekning tanqidiy qarashlari.
4. Oybekning “Navoiy” romani.
5. Oybekning Qodiriy ijodiga munosabati.
6. Oybekning taqqiqotlari.
7. Oybekning tarjimalari.
8. Oybek – adib.
9. Oybek lirikasi.
10. Oybekning dostonlari.
11. Oybek yetuk romannavis.
12. Oybek ijodining mavzu ko‘lami.
13. Oybekning adabiyotshunoslikka oid qarashlari.
14. “Oybek mahorati”.
15. «Qutlug‘ qon» – o‘zbek xalqi tarixining mustamlakachilik davri haqidagi asar.
16. Oybek ijodida xalq milliy ongining shakllanishi mavzusi.
17. Oybekning avtobiografik asarlari.
18. Oybek dostonlarida ijtimoiy muammolarning aks etishi.
19. Oybekshunoslik haqida.

## VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI

### MA’RUZALAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning hayoti va ijodi.

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Oybek hayoti va ijodi bilan aloqador eng muhim va asosli ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Oybek XX asr adabiyotining yetuk vakili sifatida o‘lmas asarlar yaratgani va bu asarlar xalqning ma’naviy mulki ekanligini aytib o‘tadi. Ijodkor yashagan tarixiy sharoit va davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari to‘g‘risida tasavvur uyg‘otadi. Oybek hayoti va faoliyati tadqiq etilgan ishlar bilan tanishtiradi. Oybekning adabiy jarayonlarga kirib kelishida muhim ta’sir ko‘rsatgan omillar izohlanadi. Oybek hayoti va ijodini o‘rganishning ahamiyatini bugungi milliy g‘oya va mafkura negizida tushuntirib o‘tadi.

*(Shu o‘rinda Oybek hayoti va ijodi yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)*

## **Interfaol metod**

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi Didaktik o'yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'z bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Oybek hayoti va ijodini o'rganishning muhim jihatlarini yoritish, Oybek asarlari g'oyasining bugungi milliy mafkuramizga mos keluvchi nuqtalarini tahlil qilish, Oybek faoliyati va qarashlarining keng targ'ib etilishi va o'rganilishi masalalariga bag'ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. XX asr adabiy muhitining o'ziga xos jihatlari nimada?
2. Oybek asarlarining g'oyaviy ko'lami, mavzu doirasi qamrovi haqida nima deysiz?
3. Oybek ijodi bo'yicha qanday tadqiqotlar yaratilgan

**Qo'llash:** tarixiy haqiqatni to'g'ri anglab yetishda, Oybek faoliyatining o'ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Milliy uyg'onish adabiyoti”, “O'zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo'llash mumkin.

**Natija:** Oybek hayoti va ijodi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Oybek hayotini o'rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san'at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo'ladi. Talabada Oybek ijodi, Oybek asarlarining g'oyasini xolisona baholash ko'nikmalari paydo bo'ladi.

**Tayanch tushunchalar:** Oybek, adabiy tanqid, XX asr adabiyoti, nasr, nazm, ma'rifat, madaniyat, istiqloq, oybekshunoslik, romannavis, , Vatan taraqqiyoti.

**Ikkinchi mashg'ulot:** 1. Oybekning nasriy asarlari badiiyati

**O'tkazish shakli:** ma'ruza.

O'qituvchi Oybek ijodini tanishtiradi. Oybekning nasriy asarlarini g'oyaviy – badiiy tahlil qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Oybek ijodining o'ziga xos jihatlari tushuntiriladi. Oybek ijodini o'rganadilar. Oybekning nasriy asarlarini g'oyaviy – badiiy tahlil qilishga o'rgatadi. Oybek ijodining o'ziga xos jihatlarini o'rganib, asarlari bilan tanishadilar. Jamiyatni faqat ilmiy taraqqiyot, iqtisodiy yuksalish emas, balki ana shu taraqqiyot va yuksalishni amalga oshirishdagi ma'naviy poklik, go'zal axloq, ya'ni komil e'tiqod mustamlakachilik sirtmog'idan, favqulodda falokatlardan asrashi, tanazzuldan qutqarishi mumkinligini Behbudiy qarashlari bilan uyg'unlikda tushuntirib beriladi.

*(Shu o'rinda Oybek asarlari badiiyari yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)*

### **Interfaol metod**

Yoshlar uch guruhga bo'linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta'lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchi mansub vakillar sifatida ishtirok etishadi. Mashg'ulot davomida olingan tushunchalar asosida Oybekning nasriy asarlarini g'oyaviy – badiiy tahlil qilib, Oybek ijodining o'ziga xos jihatlari xususida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag'batlantiriladi.

**Qo'llash:** tajribali pedagog, san'atshunos, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

**Natija:** Oybekning adib sifatida asarlarining o'ziga xosligi va adabiyotimizda tutgan o'rni, ahamiyatini tushunib yetadilar.

**Tayanch iboralar:** adabiy jarayon, g'oya, badiiylik, talqin, tahlil,

**Uchinchi mashg'ulot:** Oybekning adabiy-tanqidiy qarshlari

**O'tkazish shakli:** ma'ruza.

*O'qituvchi talabalarga Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlari haqida tushuntiradi. Oybekning adabiy tanqidchi sifatidagi faoliyati bilan tanishtiradi .*

*Oybekning nazariy qarashlarning amaliyotga ta'sirini tahliliga e'tibor qaratadi.*

### **Interfaol metod**

O'qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlarining mohiyati nimadan iborat? savoli bo'yicha quyida fikrlaringizni bayon eting.

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o'zlari yozgan fikrlarini o'qib himoya qilishlari so'raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o'rgatadi. O'qituvchi esa ularning fikrlarini to'g'ri yo'naltirish orqali mavzuni to'g'ri anglashlariga harakat qiladi.

**Qo'llash:** adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi, dinshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

**Natija:** yoshlarda Oybek publitsist, noshir sifatidagi faoliyati haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Oybekning adabiy tanqid rivojiga qo'shgan ulushi masalalarini tahlil etadilar. Oybekning tanqidiy maqolalari misolida til,

madaniyat, matbuot, taraqqiyot haqidagi fikrlarining bugungi kunda ham naqadar dolzarbligini anglab yetadilar.

**Tayanch tushunchalar:** Oybek, matbuot, felyeton, publitsistika, tanqid, senzura, muharrirlik faoliyati.

**To‘rtinchi mashg‘ulot:** Oybekning she‘riy asarlari tahlili

**O‘tkazish shakli:** ma‘ruza.

O‘qituvchi talabalarni Oybekning she‘riy asarlari va ularning milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rni haqida tushuncha beradi. Oybekning she‘riyatga kirib kelishi jarayoni tushuntiradi. Oybekning salmoqli she‘riyati bilan tanishtiradi. She‘rlarining tahlil qilish ko‘nikmasi hosil qilinadi.

### **Interfaol metod**

Yoshlar 2 guruhga bo‘linadilar. 1-guruh Oybek she‘riyatining mavzu ko‘lami 2-guruh Oybek she‘riyatining g‘yaviy-badiiy ko‘lami haqida tahliliy fikr bildiradilar. Mashg‘ulot jarayonida olingan tushuncha va ma‘lumotlar asosida to‘g‘ri va notog‘ri fikrlash holatlari ko‘rsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

**Qo‘llash:** talabalarni Oybek she‘riyati bilan tanishtirish, badiiy tahlil qilish va tushunish, adabiyotdagi o‘rnini tushunishda qo‘l keladi. Bunda jurnalistika, adabiyotshunos, tilshunoslik sohasi mutaxassislarning fikrlari muhim ahamiyatga ega.

**Natija:** Oybek faoliyatining barcha nuqtalari: nasr, nazm, publisitika, matbuot, adabiyot, adabiy tanqid – bularning barchasi milliy istiqloq, milliy o‘zlikka erishish, millatni ma‘rifatli qilish yo‘lida birlashganligini tushunib yetadilar. Uning keng ijtimoiy-siyosiy tafakkuri, she‘r ilmi xususidagi qarashlaridan xabardor bo‘lishadi.

**Tayanch tushunchalar:** lirika, nazm, she‘riy tahlil, matbuot, milliy til.

## **MULOQOTLAR**

**Birinchi mashg‘ulot:** Oybek dostonlarida ijtimoiy muammolarning aks etishi

**O‘tkazish shakli:** muloqot.

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga ulkan va bebaho hissa qo‘shgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritganligi, adabiyotga 1926 yili chop etilgan “Tuyg‘ular” she‘riy to‘plami bilan kirib kelib toki “Dilbar – davr qizi” (1931), “O‘ch” (1932), “Baxtigul va Sog‘indiq”, “Temirchi Jo‘ra” (1933) dostonlari o‘z davrining she‘riy yilnomalari ekanligi, tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratish jarayonigacha bo‘lgan ijod davri haqida bayon qilinadi.

### **Interfaol metod**

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga i savollar beriladi.

**Qo'llash:** mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, siyosatshunoslar, huquqshunoslar, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga ulkan va bebaho hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi sifatidagi faoliyati va "Dilbar – davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq", "Temirchi Jo'ra" (1933) kabi o'z davrining yetuk ijod namunalari bilan tanishadilar. Tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratish jarayonigacha bo'lgan ijod davri haqida bilimga ega bo'ladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Oybek, doston, tarixiy doston, zamonaviy doston, olim.

**Ikkinchi mashg'ulot:** Oybekning navoiyshunoslikka qo'shgan hissasi

**O'tkazish shakli:** muloqot

Oybek tadqiqotlari Navoiy hayoti va ijodiyotining o'rganishda keng qamrovli manba ekanligi, Navoiyning tarjimai holi, g'azaliyoti, dostonlari va ilmiy faoliyati ijodining halqchiligi va gumanizmi, mahorati va tili, umuman davra va adabiy muhiti singari masallar haqida yaratgan tadqiqotlari haqida bayon qilinadi.

### **Interfaol metod**

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi Didaktik o'yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'z bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Oybekning navoiyshunoslikdagi faoliyatini yoritishga bag'ishlanishini qayd etadi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va



davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muxbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga savollar bilan murojaat etishlari mumkin.

**Qo‘llash:** tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglab yetishda, Oybek faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

**Natija:** Oybek hayoti va ijodi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Oybek hayotini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san‘at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo‘ladi.

**Tayanch tushunchalar:** Navoiy, Navoiyning ilmiy asarlari, navoiyshunoslik, “Navoiy” romani, tadqiqot, g‘azal.

## MUNOZARALAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Oybek va XX asr adabiy muhiti

**O‘tkazish shakli:** munozara.

Mashg‘ulot avvalida Oybekning matbuot va adabiyot olamiga kirib kelshida turtki bo‘lgan omillar, uning nasriy va she‘riy asarlari, doston va taqidiy maqolalarining davr ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan bog‘liqligi, va asarlaridagi davr muammosi to‘g‘risida ma‘lumot beriladi.

O‘zbek nasrining yetuk nomoyondasi asarlarining mohiyati, g‘oyaviy maqsadlari bayon qilib beriladi. “Qutlug‘ qon”ning o‘z davrida juda zarur vaqtda yaratilganligi, yoshlar ta‘lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini asar negizida tushuntirishga urg‘u beriladi.

### Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma‘noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a‘zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta‘kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. Oybekning matbuot va adabiyot olamiga kirib kelshida turtki bo‘lgan omillar?

2-jamoaga. Oybekning nasriy va she‘riy asarlari, doston va taqidiy maqolalarining davr ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan qanday bog‘liqligi bor?

3-jamoaga. “Qutlug‘ qon” da davr muammosi qay darajada yoritilgan?

**Qo‘llash:** mashg‘ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma‘naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Oybekning matbuot va adabiyot olamiga kirib kelshida turtki bo‘lgan omillar, uning nasriy va she‘riy asarlari, doston va taqidiy maqolalarining davr ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan bog‘liqligi, va asarlaridagi davr muammosi to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladilar.

yoshlar asarni o‘rganish davomida inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmasligi, unda ma‘naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo‘lishi lozimligini anglab yetadilar, asardagi har bir obraz tabiati orqali o‘sha davr ijtimoiy muhiti, insonlar dunyoqarashi, axloqi to‘g‘risida xulosalar chiqarishadi. asardagi obrazlar orqali jamiyatdagi ilmlilar bilan ilmsizlar, ma‘rifatlilar bilan johillar, ogohlar bilan loqaydlar o‘rtasidagi kursh tasvirlanganligini anglab yetadilar.

**Tayanch tushunchalar:** Oybek, matbuot, tanqidiy maqola, felyeton, iqtiboslar, ruknlar.

**Ikkinchi mashg‘ulot:** “Qutlug‘ qon”ning qiyosiy tahlili

**O‘tkazish shakli:** munozara.

O‘zbek nasrining yetuk nomoyondasi asarlarining mohiyati, g‘oyaviy maqsadlari bayon qilib beriladi. “Qutlug‘ qon”ning o‘z davrida juda zarur vaqtda yaratilganligi, yoshlar ta‘lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini asar negizida tushuntirishga urg‘u beriladi.

### **Interfaol metod**

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Insert texnikasi” metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi. O‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

“V” – tanish ma'lumot.

“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

“Q” – bu ma'lumot men uchun yangilik.

“–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

**Natija:** yoshlar asarni o'rganish davomida inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmasligi, unda ma'naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo'lishi lozimligini anglab yetadilar, asardagi har bir obraz tabiati orqali o'sha davr ijtimoiy muhiti, insonlar dunyoqarashi, axloqi to'g'risida xulosalar chiqarishadi. asardagi obrazlar orqali jamiyatdagi ilmlilar bilan ilmsizlar, ma'rifatlilar bilan johillar, ogohlar bilan loqaydlar o'rtasidagi kurash tasvirlanganligini anglab yetadilar.

**Tayanch tushunchalar:** roman, “Qutlug' qon”, tahlil, obrazlar chizig'i, nasr, g'oya, muammo.

## TAQDIMOTLAR

**Birinchi mashg'ulot:** Cho'lpon ijodi Oybek talqinida

**O'tkazish shakli:** taqdimot

Taqdimotda Cho'lpon va zamondoshlari ijodi Oybek talqinida. Oybekning 20-yillardagi Cho'lpon she'riyatiga bag'ishlangan maqolasini jur'at va jasorat bilan yozilgan ishlardan biri ekanligi, Cho'lponni to'g'ri tushunishda Oybekning shoir yuragi muhim rol o'ynashi, Cho'lpon she'riyatini chuqur tahlil etib, xalq uchun zarurligini, ahamiyatini to'g'ri ta'kidlagani haqida fikrlar beriladi. **Qo'llash:** mashg'ulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Oybek tadqiqotlari natijasida Cho'lponning go'zal ijodi haqida ma'lumot oladi. Cho'lpon she'rlarini tahlil qiladi.

**Tayanch tushunchalar:** Cho'lpon, she'r, lirika, lirik qahramon, jadidlar, milliy istiqlol, erk, mustaqillik.

**Ikkinchi mashg'ulot:** Oybek – adib.

**O'tkazish shakli:** taqdimot.

Taqdimotda Oybekning adib sifatidagi faoliyati yoritib beriladi. Oybekning adabiyot va san'atga katta e'tibor qaratganligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildiriladi. Oybekning jahon adabiyoti durdonasi sanalgan asarlarni tarjima qilganigi aytiladi.

**Qo‘llash:** adabiy tanqid, badiiy tahlil asoslari, tarjima nazariyasi fanlarining amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llash mumkin.

**Natija:** Oybekning adib sifatidagi faoliyati yoritib beriladi. Oybekning adabiyot va san‘atga katta e‘tibor qaratganligi to‘g‘risida fikr-mulohazalar va Oybekning jahon adabiyoti durdonasi sanalgan asarlarni tarjima qilganigi bilan tanishadi.

**Tayanch tushunchalar:** badiiy adabiyot, tarjima, san‘at, “Navoiy”, tarjima, avtobiografik asar, maqola, tanqid.

## **IX. O‘QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLARI RO‘YXATI:**

### **Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Oybek. Asarlar. O‘n tomlik. – T.: G‘afur G‘ulom NMIU, 1968-1975.
2. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n to‘qqiz tomlik. – T.: Fan, 1975-1982.
3. Saidnosirova Z. Oybegim mening. – T., Sharq NMAK, 1994.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

4. Do‘stqorayev B. Bir munozara tarixidan // Sharq yulduzi, 1989. № 6. -189 b.
5. Yoqubov H. G‘oyaviylik va mahorat. – T.: Fan, 1963.
6. Yoqubov H. Adibning mahorati. – T.: Fan, 1966.
7. Karimov N. Oybek. – T.: Yosh gvardiya, 1985.
8. Karimov N. Oybekning “Navoiy” romani. Jahon adabiyoti, 2013, №2.
9. Karimov N. Oybekning tarjimonlik mahorati. Jahon adabiyoti, 2013, №1
10. Nazarov B. Bu sehrli dunyo... – T.: G‘afur G‘ulom NMIU, 1979.
11. Fayziev B. “Navoiy” romanida tarixiy voqelik va badiiy to‘qima. – T.: G‘afur G‘ulom NMIU, 1971.
12. Qo‘shjonov M. Oybek mahorati. – T.: Fan, 1965.
13. Oybek ijodiy metodi va badiiy mahorati. Maqolalar to‘plami. – T.: Fan, 1985.
14. Sharafiddinov O. So‘z san‘atiga fidoyi sadoqat. “Iste‘dod jilolari” kitobida. T.: G‘afur G‘ulom NMIU, 1976.

### **Elektron resurslar**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.e-tarix.uz](http://www.e-tarix.uz)
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
4. [www.qr.natlib.uz](http://www.qr.natlib.uz)
5. [www.media.natlib.uz](http://www.media.natlib.uz)
6. [www.diss.natlib.uz](http://www.diss.natlib.uz)



